



## MUSIQANING INSON HAYOTIDA TUTGAN O’RNI

**Muallif:** Ruziyeva Nodirabegim Hayotovna<sup>1</sup>, Muxamedov To’lqinjxon Djurayevich<sup>2</sup>

**Affilyatsiya:** Buxoro davlat universiteti San’atshunoslik va pedagogika fakulteti Madaniyatshunoslik y o’nalishi 1-bosqich talabasi<sup>1</sup>, Buxoro davlat universiteti San’atshunoslik va pedagogika fakulteti<sup>2</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14467464>

### ANNOTATSIYA

Maqolada musiqaning inson salomatligi, tarbiyasi va ruhiyatidagi o’rni, ahamiyati, shuningdek Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning musiqiy ta’limning rivojlantirish xususidagi qarorlari haqida so’z borgan.

**Kalit so’zlar:** Sharq taronalari, musiqa, nota, ovoz, festival, Buyuk ipak yo’li, Lazgi.

### KIRISH

O’zbek xalqining boy va qadimiy musiqa san’ati har doim Sharq xalqlari madaniyati orasida alohida o’rin tutib kelgan. Uning bu mavqei xalq ijodiyoti bilan uzviy bog’langanligi sababli hozirgi zamonda ham tobora oshib bormoqda. Jamiyatning butun ma’naviy madaniyatining bir qismi bo’lgan musiqa madaniyati o’zining kelib chiqishi, g’oyaviy mohiyati, tuzilishi, faoliyat usullari va shakllariga ko’ra ijtimoiydir. U mustaqil hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida - odamlarning amaliy ijtimoiy-sog’lom faoliyati asosida ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi davrida vujudga keladi.

### ASOSIY QISM

Musiqa san’ati o’zining jozibadorligi, serqirraligi teran va falsafiy mazmunga egaligi bilan ajralib turadi. Millat ma’naviyatining muhim bo’ g’ini sifatida musiqa san’ati jamiyatda o’zining funksiyasi va tegishli vazifalariga ham egadir. Ayniqsa, musiqiy madaniyatning ma’naviy hayotda o’ziga xos o’ringa egaligini e’tirof etish bilan birgalikda uning inson ruhiyati, yashash va yasharish bilan bo g’liq tuy g’ulari, bugungi kundan rozilik va kelajakka teran nazar bilan qarash bilan bo g’liq kayfiyatlarni vujudga keltirishda ham muhim amaliy funksiyalarni bajaradi. Musiqa madaniyati tabiatan ma’naviy moddiydir. Uning asosiy mazmunini musiqiy obrazlar va ommaviy musiqiy ongning boshqa hodisalari ya’ni qiziqishlar, ideallar, me’yorlar, qarashlar, didlarni tashkil etadi. Ammo ularning barchasi jamiyatda faoliyat yuritishi uchun musiqaning o’zini, unga munosabatni, uni aks ettirish va tushunishni fiksatsiyasining turli shakllarida refiksiyalangan bo’lishi kerak. Bundan tashqari, ushbu madaniyatning moddiy tashuvchilari orasida musiqa asboblari, musiqani tarqatishning barcha turdagi texnik vositalari, u ijro etiladigan binolar va boshqalar kiradi.

Musiqa madaniyatida ma'lum darajada an'anaviylik bilan obyektiv va subyektiv tomonlarni ajratish mumkin. Jamiyatning musiqaga bo'lgan ehtiyojlari, ularni qondirish vositalari va usullari obyektivdir. Qolgan hodisalar, birinchi navbatda, musiqachilar va tinglovchilar faoliyatini boshqaradigan qiziqishlar, qarashlar va didlar subyektiv tomonni tashkil qiladi. Bu ikkala tomon ham bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyatning musiqiy madaniyati musiq va uning ijtimoiy faoliyatining birligidir. Bu murakkab tizim bo'ib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) muayyan jamiyatda yaratilgan yoki saqlanib qolgan musiqiy qadriyatlar;
- 2) musiq qadriyatlarini yaratish, saqlash, ko'paytirish, tarqatish, idrok etish va ulardan foydalanish bo'yicha faoliyatning barcha turlari;
- 3) barcha subyektlar faoliyatning ushbu turidan, uning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va boshqa fazilatlar bilan birga;
- 4) barcha muassasalar va ijtimoiy muassasalar, shuningdek, ushbu faoliyatga xizmat ko'rsatadigan asbob va jihozlar.

O'z navbatida, musiq madaniyati yuqori darajadagi tizimlarga nisbatan quyi tizim sifatida ishlaydi. Mamlakatimiz hududida ming yilliklar davomida sayqallanib kelayotgan milliy musiq san'ati, badiiy madaniyati, estetik qadriyatlar va mumtoz san'atining barcha ko'rinishlari inson va jamiyat ma'naviy takomilining negizi bo'lib kelgan.

Shavkat Mirziyoyev Prezident lavozimini egallagan ilk kunlardan boshlab, mamlakatda madaniyat va san'at sohasini inqirozdan olib chiqish masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-avgust kuni "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiq festivalining ochilish marosimida qatnashdi. "Sharq taronalari" festivalini o'tkazilish tartibini ishlab chiqdi. U "Sharq taronalari" festivalining tarixi va an'alarini, Sharqning boy va rang-barang musiqiy madaniyatiga doir ma'lumotlarni o'zida mujassam etadigan alohida ensiklopediya va uning virtual shakli — ko'p tarmoqli axborot platformasini yaratishni taklif qildi. Qomusni tayyorlash, jahonning turli muzey va kutubxonalarini, arxiv va fondlarida tarqoq holda saqlanayotgan ma'lumotlarni to'plash, ularning yagona bazasini yaratish va kelajak avlodlarga etkazishda ishtirok etishga chaqirdi. XIII xalqaro musiq festivali ana shu qadriyatlarni yanada yuksaltirishni maqsad qilgan. Uning ta'kidlashicha, pandemiya tufayli yuzaga kelgan besh yillik tanaffusdan so'ng o'tayotgan festivalini san'atkorlar ham, muxlislar ham sog'ingan. Prezident "Sharq taronalari" mohiyatan "Jahon taronalari" festivaliga aylanganini aytdi. "Bu haqiqatni birinchi festivalda 31 ta mamlakat vakillari qatnashgan bo'lsa, bu yil barcha qit'alardagi 80 ga yaqin davlatdan 400 nafardan ziyod san'atkor va olimlar ishtirok etayotgani ham tasdiqlaydi", — deb ta'kidlab o'tdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda "Sharq taronalari" anjumani bilan birga, xalqaro maqom san'ati, baxshichilik san'ati, hunarmandchilik festivallari, folklor va raqs san'ati bo'yicha "Buyuk ipak yo'li", "Lazgi" xalqaro festivallari, Toshkent xalqaro kinofestivali singari yirik madaniy tadbirlar muntazam o'tkazib kelinayotganiga alohida urg'u berdi. Prezident jamiyatlar ichida ma'naviy tanazzul ildiz otayotgan notinch va tahlikali zamonda azaliy qadriyatlarni, odamiylik qiyofasini saqlab qolish tobora mushkul bo'lib borayotganini bildirdi. "Ayniqsa, muqaddas musulmon dinining gumanistik mohiyatini ochib berish, islom awalo ezgulik, tinchlik, ilm-ma'rifat va madaniyat

ta'limoti ekanini yana bir bor ta'kidlash, islomofobiya ko'rinishlariga barham berishga qaratilgan sa'y-harakatlar nihoyatda dolzarbdir",-deya nutq s o'zladi.

## **XULOSA**

Musiqa bilan hayotimiz yorqin va jozibalidir. Musiqasiz hayotimizni tasavvur eta olmaymiz, chunki musiqa hayotimizning ajralmas qismidek bo'lib qolgan usiz hayot go'yo g'amgin va mayusdek bo'lib qoladi. Musiqa bu o'zgacha tuy g'uki uni faqat his qilishingiz mumkin. Qayerda bo'lmaylik musiqa tinglash ehtiyoji bizni chul g'ab oladi. Ko'cha- ko'yda, to'y-u tomoshalarda va konsertlarda musiqani tinglashimiz mumkin. Musiqa sohasida ta'lim olayotgan har bir sozanda, xonanda va ijodkorlar o'z musiqani an'alarini bilib olishlari va kelgusida yangi avlodga saboq berishlari kerak. Ana shunda yangi avlod san'atni rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishlari mumkin bo'lar edi. Musiqa insonni dunyoqarashini, saviyasini oshirishda ko'maklashadi. Hozirgi vaqtga kelib musiqaga bo'lgan ehtiyoj ortgani bois, turli tadbirlar, teatr va zallarda musiqa ijro etilmoqda. Bu xalqning kayfiyatiga ijobiy tasir etibgina qolmay ularga ma'naviy ozuqa beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

Paluaniyazov, Miyrbek. "Musiqa madaniyati darslarida il g'or pedagogik texnologiyalarni q o'llash mazmuni." Science and Education 2.9 (2021): 364-368

Palwaniyazov, Miyrbek. "The importance of the following exercises in developing efficiency in the performance on notes." Интернаунка 5-2 (2021): 87-89.

Paluaniyazov, Miyrbek. "Yoshlarga musiqaviy tarbiyasida pedagoglarning usullari." Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 883-888.

Yuldasheva, Zuxra. "Milliy va zamonaviy musiqa sanatining turfa va rangbarang uslubi." Miasto Przyszłości 39 (2023): 256-259

